



Qurilish ishlari

RAQAMLAR:


- Qurilish-montaj ishlari hajmi – 402,5 mlrd. soʻm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi – 13,0 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 53,0 foiz
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – 34,0 foiz

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpogʻiston Respublikasi boʻyicha 402,5 mlrd. soʻmlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 119,1 foizni tashkil etdi va 19,1 foiz punktga oshdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 52,3 mlrd. soʻmni yoki 109,4 foizni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 9,4 foiz punktga oshdi.




Qurilish ishlari, mlrd. soʻm




Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilik shakllari boyicha qurilish ishlari yanvar-mart 2018 yil



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 391,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 97,2 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 19,0 foiz punktga oshdi.

2018 yil yanvar-mart oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Jami qurilish pudrat ishlari tarkibidagi "Bino va inshootlar qurilishi" faoliyat turi bo'yicha 278,6 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi, va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 29,4 foiz punktga koʻpaydi. Shuningdek, "Fuqarolik ob'ektlari qurilishi" faoliyat turi bo'yicha 36,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, yoki oʻtgan davrga nisbatan 21,7 foizga punktga oshdi, "Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari" faoliyat turi bo'yicha 87,8 mlrd. soʻmga bajarilib, yoki oʻtgan davrga nisbatan 5,7 foiz punktga kamaydi.

Qurilish ishlari tarkibi

Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish texnik qayta qurollantirish 300,2 mlrd. soʻm


Kapital, joriy taʼmirlash va boshqa pudrat ishlari 102,3 mlrd. soʻm



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jixotdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 300,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Kapital, joriy taʼmirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 102,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Oʻtgan yilning yanvar-mart oylariga nisbatan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish ishlari 29,3 foiz punktga koʻpaydi. Kapital, joriy taʼmirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 3,3 foiz punktga kamaydi.

2018 yil yanvar-mart oylari qurilish ishlari.



Qoraqalpogʻiston Respublikasi statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish

statistikasi boʻlimi

Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova

(0361) 222-75-91